



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**CHET ELDAN KELTIRILGAN ISHLATILGAN
BUYUMLARNI "SECOND HAND" OLIB KIRISH, SOTISHGA
TAYYORLASH, SAQLASH VA SOTISH BO‘YICHA
SANITARIYA QOIDALARI VA ME‘YORLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0245-08- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi
_____ B.I. Niyazmatov
22-yanvar 2008 yil

**CHET ELDAN KELTIRILGAN ISHLATILGAN
BUYUMLARNI "SECOND HAND" OLIB KIRISH, SOTISHGA
TAYYORLASH, SAQLASH VA SOTISH BO‘YICHA
SANITARIYA QOIDALARI VA ME’YORLARI**

O‘zbekiston Respublikasining
0245-08- sonli SanQvaM

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008

Sanitariya me'yorlari, qoidolari va gigiyenik normativlariga rioya qilmaslik qonun bo'yicha ta'qib qilinadi.

Ushbu gigiyenik normativlar, sanitariya qoidolari va me'yorlariga mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar va alohida shaxslar rioya qilishlari shart.

ME'YORIY HAVOLALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TO'G'RSIDA"GI QONUNI

"Iste'molchi o'zi sotib olgan tovar sanitariya-gigiyena, shu jumladan radiologik, epidemiyaga qarshi va boshqa amaldagi me'yor hamda qoidalar talablariga muvofiq tayyorlanganligi yoki bajarilganligi, uning hayoti, sog'lig'i, atrof-muhit uchun xavfsiz ekanligi, shuningdek uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kafolatini olish huquqiga ega" (12-modda).

"Tovarning (ishning, xizmatning) konstruktiv, ishlab chiqarish, retseptura yoki boshqa kamchiliklari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulki xavfsizligini ta'minlamaydigan materiallar, uskunalar, asbob-uskuna, jihozlar, moslamalar yoki boshqa vositalarning qo'llanilishi natijasida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi shart" (20-modda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "DAVLAT SANITARIYA NAZORATI TO'G'RSIDA"GI QONUNI

"Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligini ta'minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: sanitariya-epidemiyaga qarshi choralar ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatning majburiy qismi sifatida o'tkazilishi; mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, alohida shaxslar tomonidan sanitariya me'yorlari, gigiena normativlariga rioya qilmaslik va sanitariya-epidemiyaga qarshi choralar o'tkazmaslik oqibatida aholi salomatligiga va atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash" (2-modda).

"Davlat organlari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar: sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash maqsadida belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya me'yorlari, qoidolari va gigiena normativlariga rioya qilishlari shart" (7-modda).

“Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalarning rahbarlari va alohida shaxslar obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash va ularni ishga tushirish jarayonida sanitariya me’yorlari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etishlari shart” (9-modda).

“Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, xususiy shaxslar kimyoviy moddalar, biologik vositalar va materiallarni saqlash, qo‘llash, zararsizlantirish paytida aholining farovonligini ta’minlovchi sanitariya me’yorlari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etishlari shart” (11-modda).

“Davlat organlari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar chet eldan sotib olinadigan texnologiyalar, materiallar, xom ashyo va mahsulotlarni yetkazib berish, sotish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya me’yorlari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya qilishlari shart” (16-modda).

“Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor va boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortiladi” (29-modda).

1. UMUMIY TALABLAR

1. Ushbu Sanitariya qoidalari (bundan keyin Qoidalar deb yuritiladi) keyinchalik sotish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga ishlatilgan kiyim-kechak, "Second Hand" poyabzallarini olib kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan.

2. Ushbu Qoidalar idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, ichki muhitning belgilangan ko‘rsatkichlarini saqlab qolish uchun maxsus qurilish tadbirlarini talab qilmaydigan, ishlatilgan kiyim-kechak, poyabzal buyumlarini (bundan keyin "Second Hand" buyumlari deb yuritiladi) qabul qilish, saralash, saqlash va sotish amalga oshiriladigan omborxonalar, do‘konlar va boshqa binolar hamda joylarga tatbiq etiladi.

Insonparvarlik yordami sifatida keladigan tovarlarga alohida talablar qo‘yiladi.

3. Ushbu Qoidalarning bajarilishi uchun javobgarlik jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek "Second Hand" buyumlarini olib kirish va sotish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar zimmasiga yuklatiladi.

4. Mazkur Qoidalar talablarini buzgan aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

2. “SECOND HAND” BUYUMLARINI OLIB KIRISHDA SANITARIYA-GIGIYENA VA EPIDEMIYAGA QARSHI TALABLAR

2.1. Chet eldan keltirilgan “Second Hand” buyumlarini O‘zbekiston Respublikasi hududida saqlash (bojxona nazorati ostida saqlash bundan mustasno) va sotishga faqat davlat sanitariya nazorati organlari va muassasalarining “Second Hand” buyumlari bo‘yicha o‘tkazilgan davlat sanitariya-gigiyena ekspertizasi natijalariga asoslangan xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

Ishlatilgan shaxsiy gigiyena buyumlari, atir-upa va pardozi mahsulotlari, maishiy kimyoviy moddalar, ichki kiyimlar, paypoq mahsulotlari, ayollarning shaxsiy buyumlari, chaqaloqlar uchun mahsulotlar (shiqildoqlar, tishlovchi halqalar, sut idishlari, so‘rg‘ichlar), choyshablar, o‘yinchoqlar, bir martalik idish-tovoqlarni sotish qat‘iyan man etiladi.

Ishlab chiqaruvchining tegishli tamg‘asi bo‘lmagan hayvon terisi va mo‘ynasini sotishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi davlat sanitariya nazorati organlari va muassasalarining “Second Hand” buyumlarining epidemiologik xavfsizligi to‘g‘risidagi xulosasini berish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- tovarni yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomaning jo‘natuvchi va qabul qiluvchi ko‘rsatilgan nusxasi;
- tovarning nomi, miqdori va xususiyatlari ko‘rsatilgan tovar kuzatuv hujjatlari;
- eksport qiluvchi mamlakatning tovarlarning epidemiologik jihatdan xavfsizligini tasdiqlovchi sertifikat yoki boshqa hujjati.

Etkazib beruvchi mamlakat hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilinib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lishi shart.

2.3. “Second Hand” buyumlarini yetkazib berish shartnomasi (kontrakti)da yetkazib beruvchi tomonidan kir yuvish yoki kimyoviy tozalash (buyumlar turiga qarab), dezinfeksiya va dezinseksiya o‘tkazilishi ko‘zda tutilishi lozim.

2.4. “Second Hand” buyumlari eksport qiluvchi mamlakatning sertifikat yoki boshqa hujjati bilan birga kelishi kerak. Ushbu hujjat yetkazib berilayotgan partiyaning dezinfeksiya va dezinseksiya qilinganligini tasdiqlovchi bo‘lishi va yetkazib beruvchi mamlakat sog‘liqni saqlash organlari tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi lozim (milliy sog‘liqni saqlash vazirligining tegishli ruxsatnomasi (litsenziyasi)ga ega tashkilot tomonidan berilgan). Hujjatlarda "Second Hand" buyumlariga dezinfeksiya ishlovi berishda qo‘llanilgan usullar, vositalar va tartiblar aniq ko‘rsatilishi shart.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya nazorati organlari va muassasalarining “Second Hand” tovarlarining epidemiologik xavfsizligi to‘g‘risidagi xulosasi ushbu Qoidalarining 2.2-bandida ko‘rsatilgan taqdim etilgan hujjatlar davlat sanitariya-gigiyena ekspertizasidan o‘tkazilgandan so‘ng hamda “Second Hand” buyumlarini yuvish yoki kimyoviy tozalash (buyumlar turiga qarab) yoki kamerali dezinfeksiya qilish (zarur hollarda) amalga oshirilgandan keyin beriladi.

2.6. “Second Hand” buyumlarini yuvish yoki kimyoviy tozalash (buyumlarning turiga qarab) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 2.2-bandda ko‘rsatilgan hujjatlardan birining mavjud emasligi;
- yetkazib beruvchi mamlakatdan O‘zbekiston Respublikasiga tashish paytida buyumlarning ikkilamchi ifloslanish belgilari mavjudligi.

2.7. “Second Hand” buyumlarni kamerali dezinfeksiya qilish quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

- 2.2-bandda ko‘rsatilgan hujjatlardan birining mavjud emasligi;
- taqdim etilgan hujjatlarda "Second Hand" buyumlarini dezinfeksiya va dezinseksiya qilish usullari, vositalari va rejimlari haqidagi ma’lumotlarning yo‘qligi;

- “Second Hand” buyumlarini zararsizlantirish va dezinfeksiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanmagan usullar, vositalar va rejimlardan foydalanilganligi.

3. “SECOND HAND” BUYUMLARINI SAQLASH, AJRATISH VA SOTISH JOYLARI HAMDA XONALARIGA QO‘YILADIGAN SANITARIYA-GIGIYENA VA EPIDEMIYAGA QARSHI TALABLAR

3.1. “Second Hand” buyumlarini saqlash, ajratish, saralash va sotish maxsus mo‘ljallangan joylarda va xonalarda amalga oshirilishi shart.

3.2. “Second Hand” buyumlarini sotishga ixtisoslashtirilgan do‘konlarda va boshqa savdo shoxobchalarida, kiyim-kechak bozorlarining maxsus ajratilgan joylarida (sektorlarida) ruxsat etiladi.

3.3. “Second Hand” buyumlarini saqlash, ajratish, saralash va sotish xonalari hamda joylari Davlat sanitariya nazoratining hududiy muassasalari bilan kelishilgan bo‘lishi lozim.

3.4. Gigiyenik ekspertiza o‘tkazish va savdo qilish huquqini olish uchun Davlat sanitariya nazorati hududiy muassasalarining xulosasini olish maqsadida quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan binolarni ajratish uchun ruxsatnoma hujjatlari, bino ijarasi shartnomasi va boshqalar;

- olinadigan tovarlarning assortimenti va hajmi, tovarlarga ko'zda tutilgan qo'shimcha ishlov (kimyoviy tozalash, yuvish, dazmollash va hokazo) batafsil ko'rsatilgan tushuntirish xati;

- ajratilgan xona va unga tutash xonalarning eksplikatsiyasi;
- isitish, shamollatish, yoritish, suv ta'minoti va oqava suv tizimi, xonalarni dezinfeksiya qilish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar;
- tovarlarni tashish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

3.5. "Second Hand" buyumlarini saqlash, qadoqlash, saralash va sotish uchun mo'ljallangan joylar va xonalarning hujjatlarini ko'rib chiqish va tekshirishda sanitariya-epidemiologiya xizmati mutaxassislari ishchilarning sog'lig'i uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini, sotuvchilar, xaridorlar va atrof-muhit uchun tovar xavfsizligini ta'minlaydigan umume'tirof etilgan sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi talablarga asoslanishlari kerak.

3.6. Oziq-ovqat do'konlari va omborxonalari, bolalar va davolash-profilaktika muassasalari, yotoqxonalar, mehmonxonalar vestibyullari, turar joy binolarida "Second Hand" buyumlarini saqlash, qadoqlash, saralash va sotish uchun joylar va xonalarni joylashtirish taqiqlanadi.

3.7. "Second Hand" buyumlarini saqlash, saralash va sotish bir-biridan ajratilgan xonalarda yoki joylarda amalga oshirilishi shart.

3.8. "Second Hand" buyumlari ombori, do'konlari yoki boshqa sotish punktlari bir-biridan ajratilgan xonalar to'plamiga ega bo'lishi kerak: buyumlarni qabul qilish, saqlash, ajratish va saralash, savdo qilish, shuningdek sanitariya-maishiy xonalar.

3.9. "Second Hand" buyumlari ombori, do'konlari yoki boshqa sotish punktlari suv ta'minoti tizimiga ulanishi va kanalizatsiyaga tutashtirilgan bo'lishi shart.

3.10. Xonalarning balandligi kamida 2,8 metr bo'lishi va toza saqlanishi kerak. Devorlar, shiftlar va pollar nam tozalash va dezinfeksiyalash oson bo'lgan qoplama bilan qoplanishi lozim. Xodimlar uchun maishiy xonalar ko'zda tutilishi zarur.

3.11. Buyumlarni ko'zdan kechirish, ajratish va saralashni balandligi kamida 10 santimetr bo'lgan, gigiyenik qoplamali pol stellajlarida o'tkazish lozim. Bu xonani tozalash imkoniyatini ta'minlaydi va boshqa omborxona xonalarning ifloslanishini oldini oladi.

Savdo zalidagi buyumlarni sotish uchun mo'ljallangan idishlar va stellajlar ham qoplamaga ega bo'lishi yoki nam tozalash va dezinfeksiyalash oson bo'lgan materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.

3.12. Kundalik tozalash ish kuni oxirida o'tkazilishi shart. Smenalar orasidagi tanaffuslarda tozalash zarurati kelib tushayotgan tovarning hajmi va turiga qarab belgilanadi.

Hojatxona, dushxona, yechinish xonasi va buyumlarni ajratish xonalari har kuni dezinfeksiya qilinishi lozim. Qolgan xonalarni tozalash va dezinfeksiya qilish jadvali ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

3.13. Dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlari ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan buyurtmalar yoki shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

3.14. "Second Hand" omborlari, do'konlari yoki boshqa buyumlarni sotish punktlarining xonalari "Tabiiy va sun'iy yoritish" QMQ talablariga muvofiq yetarli darajada sun'iy va tabiiy yoritilgan bo'lishi hamda "Isitish, shamollatish va konditsiyalash" QMQ talablariga binoan sun'iy harakatlantiriluvchi kiritish-so'rish ventilyatsiyasi bilan jihozlangan bo'lishi shart. Qolgan xonalarda bir soat ichida kamida bir marta havo almashinuvini ta'minlaydigan tabiiy umumiy almashinuv ventilyatsiyasini o'rnatishga ruxsat beriladi.

3.15. Texnologik jarayon me'yorlari bo'yicha havo harorati belgilanmagan omborxonalarda markazlashtirilgan isitish tizimini o'rnatmaslikka yo'l qo'yiladi. Bunda vaqtinchalik ish joylarida mahalliy isitish tizimi nazarda tutilishi lozim.

3.16. "Second Hand" buyumlarini saqlash, ajratish, saralash va sotish bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun ma'muriy va maishiy xonalar "Ma'muriy va maishiy binolar" QMK talablariga muvofiq tashkil etilishi kerak.

3.17. Buyumlarni ajratish va saralash bilan band bo'lgan ishchilar GOST 12.4.011 talablariga muvofiq maxsus kiyim, shaxsiy himoya vositalari, shu jumladan changdan nafas olish organlarini himoyalovchi vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

3.18. "Second Hand" buyumlarini ajratish, saralash va sotishga tayyorlash bilan bog'liq ishchilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 18 yoshdan kichik bo'lmashligi;
- ishga qabul qilinishda va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga muvofiq davriy profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ish joyida xavfsizlik texnikasi qoidalarini bo'yicha yo'riqnoma olish va sanitariya minimumi bo'yicha ta'lim olish.

4. "SECOND HAND" BUYUMLARIGA QO'YILADIGAN SANITARIYA-GIGIYENA VA EPIDEMIYAGA QARSHI TALABLAR

4.1. «Second Hand» buyumlari solingan konteynerlar yoki toylarda paydo bo'ladigan begona hidni yo'qotish, ulardagi dezinfeksiya vositalari qoldiq miqdorini kamaytirish uchun toylar ochilgandan so'ng qismlarga ajratish boshlanishidan oldin shamollatilishi lozim.

4.2. “Second Hand” buyumlarini qismlarga ajratish va saralash jarayoni nafaqat tovarlarni turi va eskirish darajasiga ko‘ra taqsimlashni, balki ifloslanish darajasini aniqlashni va imkon qadar ifloslanish turini belgilashni ham o‘z ichiga olishi kerak: birlamchi - yetkazib beruvchi mamlakatdan kelgunga qadar; ikkilamchi - tashish, qismlarga ajratish, saralash jarayonidagi ifloslanish.

4.3. Qismlarga ajratilayotgan toyda hatto bitta ifloslangan buyum aniqlansa, butun toy tovari buyum turiga qarab yuvishga yoki kimyoviy tozalashga yuborilishi shart. Ikkilamchi ifloslangan buyumlar ham yuvilishi yoki kimyoviy tozalanishi lozim.

4.4. “Second Hand” buyumlarini yuvish markazlashtirilgan holda kirxonalarda amalga oshirilishi kerak.

4.5. Savdo zallari va “Second Hand” buyumlarini og‘irligiga qarab sotiladigan joylarda aholini sotib olingan tovarlarni yuvish yoki kimyoviy tozalashga topshirish zarurligi haqida xabardor qilish lozim.

4.6. “Second Hand” buyumlarini saqlash, qismlarga ajratish va sotish uchun mo‘ljallangan barcha xonalar va joylar toza saqlanishi shart. Har kuni xonalar nam latta bilan artilib, oyiga kamida bir marta dezinfeksiya qilinishi lozim.

4.7. Kiyim-kechak bozorlarida ochiq lotoklarda “Second Hand” buyumlarini sotishda, savdo o‘tkaziladigan joylar savdo tugashi bilan har kuni tozalanishi kerak. Hududni tozalash ishlarini tashkil etish bozor ma’muriyati zimmasiga yuklatiladi.

4.8. “Second Hand” buyumlarini yo‘lovchi tashiydigan transportda yoki oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashishga mo‘ljallangan transportda tashish taqiqlanadi.

5. “SECOND HAND” BUYUMLARNI KAMERALI DEZINFEKSIYALASH

5.1. “Second Hand” buyumlarini kamerali dezinfeksiyalash va dezinseksiya qilish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ushbu tibbiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) mavjud bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

5.2. “Second Hand” buyumlarini kamerali dezinfeksiyalash usullari, vositalari va tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining amaldagi me‘yoriy hujjatlari talablariga muvofiq, buyumlarning turi va ular tayyorlangan mato turiga qarab tanlanishi lozim.

5.3. Qo‘llaniladigan dezinfeksiya rejimlari SanQvaMda ko‘rsatilgan infeksiya turlariga ko‘ra buyumlarni zararsizlantirishni ta‘minlashi kerak:

“Davolash muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlarini tashkil etish hamda nazorat qilish qoidalari va me’yorlari” va “Epidemiologik o‘choqlarda yakuniy va joriy dezinfeksiyani tashkil etish hamda o‘tkazish qoidalari va me’yorlari”.

5.4. Kamerali dezinfeksiya rejimini tanlash zararsizlantirilgan buyumlarning tovar ko‘rinishi, rangi va o‘lchamini saqlashni ta’minlashi lozim.

5.5. O‘tkazilgan kamerali dezinfeksiya natijalariga ko‘ra nazorat laboratoriya tekshiruvlari o‘tkazilishi va ”Second Hand” buyumlarining kamerali dezinfeksiyasi o‘tkazilganligi tegishli ma’lumotnoma bilan tasdiqlanishi shart.